O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

OTAJONOV SHERZOD RUSTAMOVICH

KVANT FLUKTUATSIYALARI TA’SIRI OSTIDA BOZE-EYNSHTEYN KONDENSATIDAGI MATERIYA TO‘LQINLARI

01.04.02 – Nazariy fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2024

УДК: 530.145.65; 530.182.1

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

OTAJONOV SHERZOD RUSTAMOVICH

KVANT FLUKTUATSIYALARI TA’SIRI OSTIDA BOZE-EYNSHTEYN KONDENSATIDAGI MATERIYA TO‘LQINLARI

01.04.02 – Nazariy fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/FM571 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zR FA Fizika-Texnika Institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (O'zbek, Ingliz, Rus) "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'iga http://www.ziyonet.uz/ joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar	**Tsoy Eduard Nikolavevich** fizika-matematika fanlari nomzodi
Rasmiy opponentlar:	**Rasulova Muhayyo Yunusovna** fizika-matematika fanlari doktori
	Yavidov Bakhrom fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti.**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Dsc.03/30.12.2019.FM.01.09 raqamli Ilmiy kengashning 202__-yil "___"___________ soat____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 27-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.Tel.: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 202__-yil "____" _______________kuni tarqatildi.
(202__-yil "____" ________________ dagi No ___-raqamli reestr bayonnomasi).

M. M. Musaxanov
Ilmiy darajalar beruvchikengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori,
akademik

M. M. Nishonov
Ilmiy darajalar beruvchi
kengash ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

B. J. Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi kengash Ilmiy
Kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Atomlarni (bozonlarni) absolyut nol kelvinga yaqin haroratgacha sovitilsa ular bir xil energetik sathlarni egallay boshlaydi. Bu hodisaga Bose-Einstein kondensati deyiladi. Kondensat birinchi bo‘lib Bose va Einstein tomonidan 1925-yillarda bashorat qilingan bo‘lsada, o‘sha paytdagi mavjud uskunalar yordamida atomlarni bu haroratgacha yaqinlikda sovitish imkoniyati mavjud bo‘lmagan. Keyinchalik, 1995-yilda ikkita alohida gruppalar Bose-Einstein kondensatini tajribada kuzatishgani uchun 2001-yilda bu tajribalar uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlanishdi.

Hozirgi vaqtda xalqaro ilmiy hamjamiyat Bose-Einstein kondensatlarida materiya to‘lqinlarining xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ko‘plab nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu tadqiqotlar katta ahamiyatga ega, chunki ular zamonaviy fizikaning asosiy savollariga javob topishga imkon beradi. Bose-Einstein kondensatlaridagi atom gazlari tashqi magnit va optik maydonlar orqali samarali boshqarilishi mumkin, bu turli tajribalar va aniq nazariy modellar uchun asos yaratishga imkonini beradi. Bose-Einstein kondensati asosida tajribalarda quyidagi qurilmalarni yaratishda foydalanish mumkin: materiya-to‘lqin interferometrlari, atom-to‘lqinli lazerlarni ishlab chiqarishda, atom soatlarida, kvant komputerlarida kubit yoki hotira sifatida yoki kvant kriptografiyalarida sonni tub sonlarga ajratishda va boshqa maqsadlarda.

O‘rtacha maydon nuqtai nazaridan ikki- va uch-o‘lchamli, tortishuvchi ikki-atom o‘zaro-ta’siriga ega bo‘lgan kondensatlar nostabil hisoblanadi. Kondensatni stabil qilishning bir nechta usullari mavjud, jumladan tashqi tuzoqlar yordamida, uch-atom o‘zaro tasirini hisobga olish orqali, dipolyar ta'sirlashuvlar orqali, sochilish uzunliklarini davriy o‘zgartirishlar.

Yaqin yillarda nazariy metodlar orqali ikki- va uch-o‘lchamli nostabil kondensatlarni kvant fluktuatsiyalarni hisobga olish orqali stabil holatga keltirish mumkinligi va bunday kondensatlarda siqilmaydigan suyuqlik tabiatiga ega bo‘lgan kvant tomchilari hosil bo‘lishi nazariy yo‘llar bilan ko‘rsatib berildi [1]. Ma’lum bo‘lishicha, kvant fluktuatsiyalari yuqori darajada siyraklashgan suyuqlik hususiyatiga ega bo‘lgan holatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday holatning o’z-o’zidan bog’langan tuzilishi kvant tomchilari deb nomlanadi [1]. Ushbu ishdan ko‘p o‘tmay, bunday sistemalarning stabil bo‘lishi va kvant tomchilarining mavjudligi eksperimental tarzda namoyish qilindi. Ushbu tadqiqotlar natijasida Bose-Einstein kondensati sohasidagi tadqiqotchilar uchun yangi yo‘nalish ochdi.

Yuqorida ko‘rsatilganlardan kelib chiqadiki, hozirgi vaqtda Bose-Einstein kondensatidagi materiya to‘lqinlari fizikasi jadal suratda rivojlanib bormoqda va amaliy qo‘llash uchun katta istiqbolga ega bo‘lgan fanning dolzarb sohalaridir. Mamlakatimizda so‘nggi o‘n yilliklarda fanni, ayniqsa, nazariy fizika sohalarini rivojlantirishga, fundamental tadqiqotlar uchun yuqori darajada sharoit yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur dissertatsiya ishi hukumatning me’yoriy hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son qarori, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida nazarda tutilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish maqsadida bajarildi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning II. «Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bose-Einstein kondensatida kvant fluktuatsiyalarlari natijasida hosil bo‘ladigan kvant tomchilarining xususiyatlarini o‘rganish birinchi nazariy maqoladan [1] va tajribada kuzatilganidan beri bu yo‘nalish olimlar orasida juda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Dunyodagi ko‘plab tadqiqotchilar materiya to‘lqinlarining kvant fluktuatsiyalarlari ta'siri ostida turli xil xususiyatlarini o‘rganmoqdalar. Jumladan, uch-o‘lchamli kondensatdan ikki- va bir-o‘lchamli kondensatga o‘tish havola [2] da keltirilgan. Bir-o‘lchamli kondensat dinamikasi [3] da o‘rganilgan. Ikki-o‘lchamli kvant tomchilari va uyurmalar sonli metodlar yordamida havola [4] da o‘rganilgan. Uch-o‘lchamli kvant tomchilari va uyurmalarning zarrachalar soniga bog‘liq holda turg‘un sohalari havola [5] da e'lon qilingan.

Kvant tomchilari eksperimentda birinchi bo‘lib dipolar kondensatda [6], keyinchalik bozonlar aralashmasida amalga oshirilgan [7-8]. Ular kvant tomchilarining xossalarini tushuntiradigan turli xil modellarni ishlab chiqdilar va asosiy eksperimental natijalarni oldilar. Biroq, kvant fluktuatsiyalarlarining materiya to‘lqinlariga ta'sirining ko‘p jihatlari hali ham yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, o‘z yechimini kutayotgan ko‘plab masalalar mavjud. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: bir- va ko‘p-o‘lchamli kvant tomchilari va uyurmalarning dinamikasi, sistema parametrlarining vaqt bo‘yicha davriy o‘zgaruvchi bo‘lgan holatlari, modulyatsion noturg‘unlik hodisasi natijasida yassi to‘lqinlardan kvant tomchilari hosil bo‘lishi va ularning o‘zaro ta'siri. Ushbu ishda biz shu savollarni ko'rib chiqamiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Fizika-Texnika Institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligining FA-F2-004 “Kvant va dissipativ sistemalarda nochiziqli mujassamlashgan to‘lqinlarning dinamikasi va o‘zaro ta’siri” nomli ilmiy loyihasiga muvofiq amalga oshirildi, 2017-2020 yillar. “Kvant gazlari va nochiziqli optik muhitlarda mujassamlashgan to‘lqinlar dinamikasini o‘rganish” mavzusidagi davlat byudjeti loyihasi doirasida amalga oshirildi, 2020-2021 yillar.

Tadqiqotning maqsadi kvant fluktuatsiyalarlari ta'sirini hisobga oluvchi ko‘p-o‘lchamli ikki-komponentali Bose-Einstein kondensatlarida materiya to‘lqinlarining xususiyatlarini o‘rganish va ushbu sistemalarda mujassamlashgan holatlarni tushuntirish uchun nazariy metodlar ishlab chiqishdir.

Tadqiqotning vazifalari: Bir va ko‘p o‘lchamli Bose-Einstein kondensatlarida kvant tomchilari, uyurmalar va yassi to‘lqinlarning xossalarini tushuntirish uchun matematik modellar ishlab chiqish. Ko‘p o‘lchamli Bose-Einstein kondensatlarida o‘zaro ta’sir konstantalari vaqt bo‘yicha davriy o‘zgaruvchi bo‘lgan holatlarni tadqiq qilish.

Modulyatsion noturg‘unlik hodisasi tufayli birjinsli zichlik taqsimotiga ega bo‘lgan Bose-Einstein kondensatlarining kvant tomchilariga aylanishi shartlarini ochib berish. Parametrlari fazosida noturg‘unlik sohalarini aniqlash va hosil bo‘lgan kvant tomchilarining dinamikasini o‘rganish.

Gross-Pitaevskii yoki nochiziqli Schrodinger turidagi bir- va ko‘p- o‘lchamli tenglamalarni va variatsion yaqinlashish va chiziqli turg‘unlik taxlili modelida yuqoridagi fizik jarayonlarni sonli simulyatsiyalar qilish. Variatsion usulning va chiziqli turg‘unlik taxlili yordamida olingan natijalarning to‘g‘riligini asoslash uchun har bir holatni alohida o‘zaro batafsil taqqoslash.

Tadqiqotning obyekti. Bir va ko‘p o‘lchamli Bose-Einstein kondensatlarida kvant tomchilari, uyurmalar va yassi to‘lqinlar.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib mujassamlashgan holatlar parametrlarini zarrachalar soniga bog‘liqligi, rezonans hodisasi, kichik tebranishlar davri, kvant tomchilari va uyurmalarning turg‘unlik shartlari, yassi to‘lqinlarning modulyatsion noturg‘unligi va kvant tomchilarining hosil bo‘lish xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqotda biz murakkab fizik sistemalar dinamikasini o'rganishda analitik va sonli tadqiqot usullarining kombinatsiyasidan foydalanamiz. Tadqiqotning analitik qismi uchun biz variatsion yaqinlashish, Tomas-Fermi yaqinlashuvi va chiziqli turg‘unlik tahlilidan foydalanamiz. Ushbu usullar bizga chuqur nazariy bilimlarni olish va sistemaning xatti-harakatlarini boshqaradigan asosiy tamoyillarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Analitik yondashuvlardan tashqari, biz hisob-kitoblar va simulyatsiyalarni amalga oshirish uchun turli xil sonli usullardan foydalanamiz. Xususan, tadqiqot uchun asosiy bo‘lgan Gross-Pitayevskii tipidagi tenglamalarni yechishga e’tibor qaratamiz. Ushbu tadqiqotda ishlatiladigan sonli usullar qatoriga to'rtinchi tartibli Runge-Kutta usuli va Crank-Nicolson usuli kiradi, ularning ikkalasi ham nochiziqli hususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishda aniqligi va barqarorligi bilan mashhur.

Bundan tashqari, biz sonli tahlillarning bir qismi sifatida rasmga qayta ishlov berishning usullaridan foydalanamiz, bu bizga eksperimental ma'lumotlardan qimmatli ma’lumotlarni olish va sistemaning xatti-harakatlarini tasavvur qilish imkonini beradi. Ushbu analitik va sonli tadqiqot usullarini birlashtirib, biz tekshirilayotgan murakkab fizik hodisalarni har tomonlama va ishonchli tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Bu yondashuv nazariy tushuntirish va empirik ma’lumotlar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish va shu orqali sistema dinamikasini to'liqroq tushunish imkonini beradi va bu sohadagi ilmiy bilimlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Kvant fluktuatsiyalarlarini hisobga oladigan bir va ko‘p o‘lchamli Bose-Einstein kondensatlarida kvant tomchilarini va ikki-o‘lchamli holatda uyurmalarni xarakterlash uchun super-Gaussian funksiyasi yordamida variatsion metod ishab chiqildi.

Barcha o‘lchamlarda kvant tomchilarining energiyasi, effektiv potensiali, kichik tebranishlar chastotalari va kimyoviy potensiallarining analitik tenglamalari hisoblandi va kvant tomchilarining turg‘unligi Vakhitov-Kolokolov kriteriyasi orqali tekshirildi.

Ikki- va uch-o‘lchamli Bose-Einstein kondensatida o‘zaro ta’sir konstantalari davriy o‘zgaruvchi bo‘lgan holatlarda kvant tomchilarining resonans tebranishlari va tashqi modulyatsiya amplitudasiga bog‘liq ravishda dinamikasining turli regimlari aniqlandi.

Kvant fluktuatsiyalarlari ta’sirini hisobga oladigan ikki-o‘lchamli ikki komponentali Bose-Einstein kondensatida g‘alayonlangan yassi to‘lqinlarning eksponensial o‘sish shartlari va parametrlar fazosida stabil va nostabil sohalari topildi. Modulyatsion noturg‘unlikning nochiziqli bosqichida kvant tomchilari hosil bo‘lishi, ularning kamayishi qonuni va kamayish tezliklari aniqlandi. Bu qonuniyatlarni hisoblashda rasmlarga ishlov berish texnikasining Bose-Einstein kondensati dinamikasiga qo‘llash mumkinligi ko‘rsatildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Gross-Pitayevskii tipidagi bir va ikki komponentli tenglamalar fazoning turli xil o‘lchamlarda analitik va sonli yechiladi. Bose-Einstein kondensatlari kogorentlik xususiyatlariga ko‘ra kvant ma’lumotlarini qayta ishlash uchun potentsial nomzodlardir. Turli geometriyalardagi kondensatlarning dinamikasini tushunish ularning kvant hisoblashlaridagi muayyan muammolarni hal qilishga imkon beradi. Bunday sistemalarda Gross-Pitayevskiy tenglamalarini yechish bizga potentsial texnologik ilovalar uchun ushbu holatlarni loyihalash va boshqarishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarga ularning ishonchliligini ta’minlaydigan bir nechta omillar tufayli ishonish mumkin:

Birinchidan, tadqiqot qat'iy nazariy fizika, matematika va yuqori aniqlikdagi sonli usullar va algoritmlarni qo'llashga tayanadi. Ushbu yondashuv ishonchli va aniq ma’lumotlarni tahlil qilishni ta’minlaydi, potentsial xatolar va noaniqliklarni minimallashtiradi.

Ikkinchidan, olingan natijalar va aniq yechimlar, statsionar holatlarda Thomas-Fermi chegaralari bilan va sonli simulyatsiyalar o'rtasidagi aniq moslilik ularning ishonchliligini yanada oshiradi. Turli metodlar bir hil natijalar berganda, natijalarning haqiqiyligiga ishonchni oshiradi, bu esa qo'llaniladigan usullarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, ba’zi natijalarning boshqa olimlar tomonidan muqobil usullar va haqiqiy tajribalar yordamida mustaqil ravishda olingan natijalarga mos kelishi natijalarning ishonchliligini oshiradi. Bir nechta manbalardan olingan natijalarning bunday mos kelishi tadqiqot natijasida olingan natijalar ishonchliligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, haqiqiy fizik parametrlarni baholash Bose-Einstein kondensatlarida o'tkazilgan odatiy tajribalar bilan yaxshi mos keladi. Eksperimental ma’lumotlar bilan ushbu muvofiqlik tadqiqotning amaliy qo'llash haqiqatiga asoslanganligini ta’minlaydi va natijalarning ishonchliligini yanada tasdiqlaydi.

Ushbu jihatlarni hisobga olish va tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondoshuvlar orqali olingan natijalar ishonchlilikka ega bo'ladi va natijalarning aniqligi va asosliligiga ishonchni uyg'otadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Olingan natijalar kvant fluktuatsiyalarlari ta’siri ostida bir va ko‘p o‘lchamli Bose-Einstein kondensatlarida materiya to‘lqinlarining bir qator muhim (siqilmaydigan suyuqlik hususiyati va h.k.) hususiyatlarini ochib beradi va batafsil tushuntiradi. Ushbu fundamental tadqiqotlar Bose-Einstein kondensatlarida kvant fluktuatsiyalari effektining to‘liq nazariyasini ishlab chiqishga zamin yaratadi. Shuningdek, bu natijalar yordamida kondensatdagi atomlar soni, kritik harorat, kondensatning yashash vaqti va shu kabi boshqa haqiqiy tajriba parametrlarini baholashda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, dissertatsiya natijalari turli xil ta’sirlar mavjud bo‘lganda ham, kvant tomchilarining parametrlarining vaqt bo‘yicha dinamikasini o‘rganishda ham foydali bo‘lishi mumkin. Bu ayniqsa, tashqi tuzoq tomonidan hosil qilingan Bose-Einstein kondensatlarining dastlabki taqsimoti aniq yechimlar bilan ozgina farq qiladigan tajribalar uchun juda muhimdir. Tadqiqot natijalarining tajribalar bilan mos kelishi Bose-Einstein kondensatlarida materiya to‘lqinlarining tabiatini biz taklif qilgan metodlar orqali o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya ishida olingan natijalarga scopus.com saytlaridagi ma’lumotlarga ko‘ra umumiy 58 ta (2023-yil noyabr) havola mavjud.

Jumladan dissertatsiya ishining birinchi bobi bo‘yicha chop qilingan maqolaga 27 ta havola mavjud, quyida bir nechtasi keltirilgan: Physical Review Letters, 126, 244101, 2021, IF: 9.185; Chaos, Solitons & Fractals, 152, 111313, 2021, IF: 9.922; Scientific Reports, 12, 6904, 2022, IF: 4.997; Physical Review A, 103, 053302, 2021, IF: 2.971;

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi bo‘yicha chop qilingan 2 ta maqolaga 9 va 18 ta jami 27 ta havola mavjud, quyida bir nechtasi keltirilgan: Chaos, 33, 033141, 2023, IF: 3.741; Physics Letters A, 480, 128987, 2023, IF: 2.6; Physical Review A, 105, 063328, 2022, IF: 2.971;

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi bo‘yicha chop qilingan maqolaga 4 ta havola mavjud, quyida bir nechtasi keltirilgan: Chaos, Solitons & Fractals, 164, 112665, 2022, IF: 9.922; Physical Review A, 108, 033312, 2023, IF: 2.971; Physical Review A, 106, 033309, 2022 IF: 2.971.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu dissertatsiyaning asosiy natijalari bir qator xalqaro va Respublika konferensiyalarida va ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha Scopus ma’lumotlar bazasiga kiradigan xalqaro jurnallarda 4 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosalar va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 81 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi asoslangan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilib, tadqiqot ob’ekti va predmeti ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ta’kidlangan, ularning ishonchliligi asoslangan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilinganligi, chop qilingan nashrlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Bir o‘lchamli Bose-Einstein kondensatida kvant tomchilari**” deb nomlangan birinchi bobida bir o‘lchamli kvant tomchilarining statik va dinamik xususiyatlari analitik va sonli metodlar yordamida o‘rganildi. Kvant fluktuatsiyalari ta’sirida ikki komponentli Bose-Einstein kondensatini ko‘rib chiqaylik. Komponentalar simmetrik bo‘lgan holda bu sistema bir-o‘lchamli Gross-Pitaevskii tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$i\Psi_t + \frac{1}{2}\Psi_{xx} + \gamma|\Psi|^2\Psi + \delta|\Psi|\Psi = 0, \tag{1}$$

bu yerda tenglama o‘lchamsiz holatda yozilgan. Oxirgi kvadratik nochiziqli had kvant fluktuatsiyalari ta’siriga mos keladi va γ va δ lar o‘zaro ta’sir konstantalari. Statsionar holatda o‘zaro ta’sir konstantalarining ixtiyoriy qiymatlari uchun (1) tenglamaning umumlashgan aniq yechimi aniqlandi.

Tajribalarda tashqi tuzoqlar tomonidan hosil qilingan Bose-Einstein kondensatining dastlabki zichlik taqsimoti aniq yechim bilan mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun kvant tomchilari parametrlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini o‘z ichiga oladigan va turli xil ta`sirlarni hisobga oluvchi yondashuvlarni ishlab chiqish juda muhimdir.

Kvant tomchilari parametrlari uchun dinamik tenglamalarni topish uchun biz Lagrange formalizmidan foydalandik. (1) tenglamaning Lagrange zichligi quyidagicha:

$$\mathcal{L} = \frac{i}{2}(\Psi\Psi_t^* - \Psi^*\Psi_t) + \frac{1}{2}|\Psi_x|^2 - \frac{\gamma}{2}|\Psi|^4 - \frac{2\delta}{3}|\Psi|^3 . \tag{2}$$

Quyidagi super-Gauss funksiyasidan foydalangan holda variatsion yaqinlashish metodi bilan kvant tomchilarining xossalari o‘rganildi:

$$\psi(r,t) = A\exp\left(-\frac{1}{2}\left(\frac{x}{w}\right)^{2m} + ibr^2 + i\varphi\right), \tag{3}$$

bu yerda $A(t), w(t), b(t)$ va $\varphi(t)$ lar variatsion parametrlar bo‘lib, mos ravishda amplituda, kenglik, chirp va boshlang‘ich fazalardir. Super-Gauss indeksi m vaqtga bog‘liq emas deb olindi, uning qiymati statsionar tenglamaning yechimidan topiladi $m = m_s$. Super-Gaussian funksiyasining tanlashning avzalligi u zarrachalar soni kam bo‘lganda “qo‘ng‘iroqcha” shakldagi yechimlarni va zarrachalar soni katta bo‘lgandagi "yassi-ustli" ko‘rinishdagi yechimlarni ifodalash imkonini beradi. "Yassi-ustli" ko‘rinishdagi yechimlar kvant tomchilarining fundamental xossasi hisoblanadi. Oddiy Gaussian funksiyasi bilan bunday yechimlarni ifodalab bo‘lmaydi.

Euler-Lagrange tenglamalaridan foydalangan holda kvant tomchilari parametrlari uchun harakat tenglamalari topildi,

$$b_t = -\frac{1}{8\Gamma(1+3s)}\left[\frac{-3\Gamma(2-s)}{sw^4} + \frac{3\gamma}{2^s}\frac{N}{w^3} + \frac{2^{3/2+s}\delta\sqrt{N\Gamma(s+1)}}{3^s w^{5/2}} + 16\Gamma(3s+1)b^2\right], \tag{4}$$

$$w_t = 2wb.$$

Kimyoviy potensialning ko‘rinishi quyidagich:

$$\mu = \frac{-3\gamma N}{2^{s+3}\Gamma(s+1)w_s} - \frac{5\cdot 2^{s-1}\delta N^{1/2}}{3^{s+1}[2\Gamma(s+1)w_s]^{1/2}}. \tag{5}$$

Parametrlarning har xil qiymatlarida statsionar kvant tomchilari yechimlari topildi, yechimlarning turg‘unligi Vakhitov-Kolokolov kriteriyasi va sonli hisoblashlar orqali tekshirildi (1- rasm chap panel).



1-rasm: Chap panel: Kvant tomchisi kengligi w, super-Gaussian indeksi m (chap o‘q) va amplituda A ning (o‘ng o‘q) normaga bog‘liqligini ifodalaydi. O‘ng panel: Kvant tomchisi kengligining kichik tebranishlar davri T ning N ga bog‘liqligi ko‘rsatadi. Ichki grafikda kvant tomchisining zichlik taqsimoti $|\Psi(x,t)|^2$ ning dinamikasi ko‘rsatilgan, $N=5$ uchun. Har ikkala grafikda chiziqlar variatsion yaqinlashuvdan, nuqtalar esa (1) tenglamaning sonli simulyatsiyalaridan olingan. Boshqa parametrlar $\gamma=-1$ va $\delta=1$.

Harakat tenglamalaridan foydalanib parametrlarning har xil qiymatlari uchun effektiv potensial ko‘rinishi aniqlandi. Potensialning minimumi kvant tomchilarining statsionar kengligiga mos keladi. Statsionar holatidan siljitilgan kvant tomchilari muvozanat nuqtasi atrofida tebranma harakat qiladi, 1-rasm o‘ngdagi ichki grafik. Zarrachalar sonining har xil qiymatlari uchun kichik tebranishlarning davri variatsion yaqinlashishda va sonli hisoblashlar yordamida aniqlandi, 1- rasm o‘ng panel.

Dissertatsiyaning **“Ikki o‘lchamli Bose-Einstein kondensatida kvant tomchilari”** deb nomlangan ikkinchi bobida**,** o‘rtacha maydondan keyingi yaqinlashuvda ikki o‘lchamli ikki-komponentali Bose-Einstein kondensatida g‘alayonlangan yassi to‘lqinlarning modulyatsion noturg‘unligi va kvant tomchilari hosil bo‘lishi, shuningdek kvant tomchilari va uyurmalarning statik va dinamik xususiyatlari o‘rganildi. Bunday sistemani quyidagi Gross-Pitaevskii tenglamalari orqali ifodalash mumkin:

$$i\frac{\partial\psi_j}{\partial t}+\frac{1}{2}\nabla^2\psi_j-\frac{\psi_j}{2\sqrt{\sigma_1\sigma_2}}\left(\sqrt{\sigma_j/\sigma_{3-j}}\,|\psi_j|^2-|\psi_{3-j}|^2\right)-\sqrt{\sigma_j/\sigma_{3-j}}\,\psi_j\,p\ln(p)=0, \tag{6}$$

bu yerda, tenglama o‘lchamsiz holarda yozilgan, $j=1,2$, $\nabla^2=\partial_x^2+\partial_y^2$, σ_1 va σ_2 lar sochilish parametrlariga bog‘liq konstantalar, $p=(\sigma_1|\psi_1|^2+\sigma_2|\psi_2|^2)/(2\sqrt{\sigma_1\sigma_2})$. Oxirgi logarifmik had kvant fluktuatsiyalari ta’sirini ifodalaydi.

G‘alayonlangan yassi to‘lqin quyigagi ko‘rinishda olindi:

$$\psi_j=(A_j+\delta\psi_j)\exp(-i\mu_j t),\qquad \mu_j=\frac{A_j^2}{2\sigma_{3-j}}-\frac{A_{3-j}^2}{2\sqrt{\sigma_j\sigma_{3-j}}}+\sqrt{\sigma_j/\sigma_{3-j}}\,p_0\ln(p_0), \tag{7}$$

bu yerda $\delta\psi_j \ll A_j$, $p_0=(\sigma_1A_1^2+\sigma_2A_2^2)/(2\sqrt{\sigma_1\sigma_2})$, μ_j – kimyoviy potensial, A_j – yassi to‘lqin amplitudasi, $\delta\psi_j$ – kichik g‘alayonni ifodalaydi, $\delta\psi_j=0$ da (7) ifoda (6) ning statsionar yassi to‘lqin yechimini beradi. Chiziqli turg‘unlik taxlili yordamida g‘alayonlangan yassi to‘lqinlar amplitudasi $\delta\psi_j$ uchun quyidagi chiziqli tenglamalar olindi:

$$i\frac{\partial\delta\psi_j}{\partial t}+\frac{1}{2}(\delta\psi_{jxx}+\delta\psi_{jyy})-c_j(\delta\psi_j^*+\delta\psi_j)-c_3(\delta\psi_{3-j}^*+\delta\psi_{3-j})=0, \tag{8}$$

bu yerda $j=1,2$,

$$c_j\equiv\frac{A_j^2}{2\sigma_{3-j}}+\frac{A_j^2\sigma_j}{2\sigma_{3-j}}\ln\left(ep_0\right),\qquad c_3\equiv\frac{A_1A_2}{2}\left[-\frac{1}{\sqrt{\sigma_1\sigma_2}}+\ln\left(ep_0\right)\right], \tag{9}$$

G‘alayonni $\delta\psi_j=u_j+iv_j$ ko‘rinishda olamiz va (8) tenglamani haqiqiy va mavhum qismlarga ajratamiz, hosil bo‘lgan differensial tenglamani yechimini $(u_j,v_j)\sim\exp(\lambda t+ik_x x+ik_y y)$ ko‘rinishda qidiramiz va algebraik tenglamalar sistemasini olamiz. Bu tenglamalarni taxlil qilish orqali quyidagi natijalarni topildi: G‘alayon amplitudasining keskin oshish shartlari $ep_0<1, |k|<k_{cr}$ aniqlandi. Modulyatsion noturg‘unlikning maksimal o'sish sur'ati, $G_{max}=k_{max}^2/2=k_{cr}^2/4$, unga mos keladigan to‘lqin soni $k_{max}=k_{cr}/\sqrt{2}$, va to‘lqin sonining kritik

$$|k|<k_{cr}\equiv\sqrt{2}\sqrt{-(c_1+c_2)+\sqrt{(c_1-c_2)^2+4c_3^2}}$$

qiymatlari aniqlandi. G‘alayonlangan yassi to‘lqinning amplitudasi to‘lqin sonining kritik qiymatidan ($k<k_{cr}$) kichik qiymatlarida noturg‘un, ($k\geq k_{cr}$) katta qiymatlarida esa turg‘unligi aniqlandi, 2 (a)- rasm.



2-rasm: (a) Modulyatsion noturg‘unlik o‘sish tezligi G ning to‘lqin soni k ga bog‘liqligi. Yuqori ko‘k chiziq simmetrik holat uchun $n_{10} = n_{20} = 0.3$ va pastki qizil chiziq assimetrik holat uchun $n_{10} = 0.3$ va $n_{20} = 0.1$. Nuqtalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sonli simulyatsiyalaridan topiladi. (b) Simmetrik holat uchun o‘sish tezligi G, k va n larning funksiyasi sifatida. Ranglar paneli G ning qiymatlarini ifodalaydi. Uzluksiz chiziq modulyatsion noturg‘unlik chegarasini ko'rsatadi, uzlukli chiziq esa o‘sish tezligining maksimal qiymati G_{max} ni ko'rsatadi. O‘zaro ta’sir parametrlari $\sigma_1 = \sigma_2 = 0.1$.



3-rasm: Zichlik taqsimotining odatiy dinamikasi quyidagi vaqt momentlarida (b), $t = 90$, (d) $t = 1000$. Boshlang‘ich zichlik $n_0 = 0.2$, va $\sigma_1 = \sigma_2 = 0.1$. Ranglar paneli $n = |\psi_1|^2 + |\psi_2|^2$ ni ifodalaydi.

Parametrlarning har xil qiymatlarida turg‘unlik va noturg‘unlik sohalari topildi, 2 (b)-rasm. Olingan natijalariga asoslangan holda tajribalarda modulatsion noturg‘unlikni kuzatishning quyidagi usulini taklif qilindi. Birinchi navbatta yuqori zichlikli ikki komponentli kondensat hosil qilish kerak. Bu holat uchun kondensat turg‘un. Keyin kondensat zichligini kamaytirish, masalan, tashqi tuzoqni kengaytirish orqali modulatsion noturg‘unlikni kuzatish mumkin.

Modulyatsion noturg‘unlikning keyingi nochiziqli bosqichida kvant tomchilari hosil bo‘ladi. Bu bosqich sonli hisoblashlar yordamida o‘rganildi. Hosil bo‘lgan kvant tomchilarining soni vaqt o‘tishi bilan ularning bir-biri bilan ta’sirlashib bir-biriga birikishi orqali keskin kamayadi. Parametrlarning har xil qiymatlarida kvant tomchilarining soni, kamayish qonuniyati va kamayish tezliklari aniqlandi, 3-rasm. Hosil bo‘lgan kvant tomchilarining sonini hisoblashda MATLABning rasmga ishlov berish texnikasidan foydalanildi.

Bobning ikkinchi qismida kvant fluktuatsiyalari ta'siri ostida Bose-Einstein kondensatida ikki o'lchamli kvant tomchilari va uyirmalarning statik va dinamik xususiyatlari nazariy va sonli metodlar yordamida o'rganildi. Kvant tomchilari va uyirmalarning xususiyatlarini o'rganishda biz zarrachalar soni, massasi va o'zaro ta'sir konstantalari teng bo'lgan simmetrik Bose-Einstein kondensatini ko'rib chiqdik. Kvant fluktuatsiyalarini hisobga oladigan bunday sistema quyidagi Gross-Pitaevskii tenglamasi orqali ifodalanadi:

$$i\partial_t\Psi+\frac{1}{2}\nabla^2\Psi+\delta|\Psi|^2\ln(|\Psi|^2)\Psi=0, \tag{10}$$

bu yerda, tenglama o'lchamsiz holatda yozilgan. $\nabla^2=\partial_x^2+\partial_y^2$ ikki o'lchamli Laplace operatori. (10) ning analitik ko'rinishdagi aniq yechimi mavjud emas, shuning uchun biz variatsion yaqinlashish metodidan foydalandik. Kvant tomchisi va uyurmalarni ifodalashda quyidagi super-Gaussian funksiyasidan foydalandik:

$$\Psi(r,\theta,t)=Ar^S\exp\left[-\frac{1}{2}\left(\frac{r}{w}\right)^{2m}+i(br^2\pm S\theta+\varphi)\right], \tag{11}$$

bu yerda $A(t)$, $w(t)$, $b(t)$, va $\varphi(t)$ lar variatsion o'zgaruvchilar bo'lib, ular mos ravishda amplituda parametri, kenglik, chirp va boshlang'ich fazalarni ifodalaydi. Profil shaklini ifodalaydigan super-Gaussian parametri m, statsionar yechimdan topiladi. Topologik zaryad $S\geq 0$, butun qiymatlarni qabul qiladi. Agar $S=0$ bo'lsa, (11) tenglama kvant tomchilarini ifodalaydi, $S=1,2,3,...$ bo'lgan holatlar uyurmalarni ifodalaydi.

Euler-Lagrange tenglamalari orqali kvant tomchilari va uyurmalarni ifodalaydigan parametrlar uchun dinamik tenglamalar olindi. Kenglik uchun tenglamani ko'rinishi quyidagicha:

$$w_{tt}=-\frac{\Gamma(M(S+1))}{\Gamma(M(S+2))}\frac{\partial G}{\partial w}, \tag{12}$$

bu yerda

$$\begin{aligned}G(w,N,M)&=\frac{\Gamma(MS+2)}{2M^2\Gamma(M(S+1))w^2}+\frac{N\Gamma(M(2S+1))}{2^{2+M(2S+1)}\pi M\Gamma^2(M(S+1))w^2}\\&\times\delta\{1+M+2MS\left[1-\psi(M(2S+1))\right]-2\log\left[\frac{N}{2^{MS}\pi Mw^2\Gamma(M(S+1))}\right]\},\end{aligned} \tag{13}$$

$\psi(z)=d\ln\Gamma(z)/dz$ – digamma funksiya, $N=\pi MA^2w^{2(S+1)}\Gamma(M(S+1))$.

Bu tenglamalardan foydalanib effektiv potensial, kichik tebranishlar chastotalari va kimyoviy potensiallar aniqlandi. Effektiv potensialning ko'rinishi 4-rasm chap tomonda keltirilgan. Kimyoviy potensialning ko'rinishi $\mu=\partial E_s/\partial N$ dan aniqlanadi, bu yerda $E_s=NG$ – kvant tomchisining statsionar energiyasi.

Kvant tomchilari va uyurmalarning turg'unligi Vakhitov-Kolokolov kriteriyasi (4-rasm chap paneldagi ichki grafik) va sonli metodlar orqali tekshirildi, (4- rasm o'ng panel).



4-rasm: Chap panel: (S, N, m) ning turli qiymatlari uchun effektiv potensialning ko‘rinishi. Pastki (qizil), o‘rta (ko‘k) va yuqori (qora) chiziqlar mos ravishda $(0,100,2,537)$, $(1,200,1,971)$ va $(2,200,2,073)$ uchun. Ichki chizilgan grafik, kimyoviy potentsial μ ning norma N ga bog‘liqligini ifodalaydi. Ichki grafikda kulrang to‘g‘ri chiziq Tomas-Fermi chegarasini ifodalaydi. O‘ng panel: Kvant tomchilari va uyurmalarning profili $|\Psi|$ ko‘rinishi, $S=1,2,3,0$, va normalar mos ravishda $N=60,200,510,1000$ bo‘lgan holatlar uchun uzluksiz chiziqlar variatsion metoddan topilgan, uzlukli chiziqlar esa sonli metodlardan aniqlangan.

Uyurmalar uchun zarrachalar soni (norma) ga bog‘liq holda turg‘un va noturg‘un sohalari aniqlandi. Noturg‘un sohada topologik zaryadi S bo‘lgan uyurmalarning odatda $S+1$ ta fragmentlarga parchalanishi aniqlandi. Kvant tomchilarining dinamikasi o‘zarota’sir konstantalari vaqt bo‘yicha davriy o‘zgaruvchi bo‘lgan holatlarda sonli hisoblashlar orqali o‘rganildi. Bunda kvant tomchilarining resonans tebranishlari va tashqi modulyatsiya amplitudasiga bog‘liq ravishda adiabatik tebranishlari, bug‘lanishi va parchalanish holatlari aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Uch o‘lchamli Bose-Einstein kondensatida kvant tomchilari**” deb nomlangan uchinchi bobida kvant fluktuatsiyalarini hisobga oladigan ikki-komponentali Bose-Einstein kondensatida, uch o‘lchamli kvant tomchilarining statik va dinamik xususiyatlari, shuningdek o‘zaro ta’sir konstantalari vaqt bo‘yicha davriy o‘zgaruvchi bo‘lgan hollari analitik va sonli metodlar yordamida o‘rganildi. Hisoblashlar komponentalarning simmetrik bo‘lgan, ya’ni atom massalari, atomlar soni va o‘zaro ta’sir konstantalari bir xil bo‘lgan Bose gazlari uchun amalga oshirildi. Bu sistemani quyidagi Gross-Pitayevskii tenglamasi orqali ifodalash mumkin:

$$i\psi_t + \frac{1}{2}\nabla^2\psi + \alpha|\psi|^2\psi - \beta|\psi|^3\psi = 0, \tag{14}$$

bu yerda tenglama (14) o‘lchamsiz holda keltirilgan. α va β parametrlar ixtiyoriy tanlanishi mumkin. Ular o‘lchamsiz tenglamada o‘rtacha-maydon va kvant fluktuatsiyalari o‘zaro ta’sirini ifodalaydi. (14) tenglamada, $g_{12}=g$ deb olish orqali ikki-atom o‘zaro ta’sirini tenglamada hisobga olmaslik mumkin ($\alpha=\delta g=0$). U holda itaruvchi xarakterga ega kvant fluktuatsiyalari tashqi potensial yordamida muvozanatlashtiriladi. Bunday sistema Lee-Huang-Yang suyuqligi deb yuritiladi va birinchi marta nazariy jihatdan [9] havolada va eksperimental jihatdan [10] havolada o‘rganilgan.

Zichlik taqsimotini bir- va ikki-o‘lchamlarda hisoblanganidek super-Gaussian funksiyasi ko‘rinishida ta’savvur qilamiz, ya’ni (3) tenglamada $x=r$ deb olish kerak. Super-Gaussian indeksi m ning qiymati bir- va ikki-o‘lchamlardagidek statsionar tenglamaning yechimidan topiladi. Norma $N=4\pi A^2 w^3\Gamma(1+3M)/3$, ($M=1/2m$) saqlanuvchi kattalik bo‘lib, kvant tomchisidaga atomlar soniga proporsional. $\Gamma(z)$ – Gamma funksiya. Sistemaning Lagrange funksiyasi quyidagi $L=4\pi\int_0^\infty r^2\mathcal{L}dr$ integral yordamida topiladi, bu yerda $\mathcal{L}$ (14)- tenglamaning Lagrange zichligi:

$$\frac{L}{N}=\varphi_t+\frac{\Gamma(5M)}{\Gamma(3M)}w^2(2b^2+b_t)+G(M,w,N), \tag{15}$$

bu yerda

$$G(M,w,N)=\frac{3\Gamma(M+2)}{8M\Gamma(3M+1)w^2}-\frac{G_1\alpha}{w^3}+\frac{G_2\beta}{w^{9/2}},$$

$$G_1\equiv\frac{3\cdot 2^{-3(M+1)}N}{\pi\Gamma(3M+1)},\quad G_2\equiv\frac{3\sqrt{3}2^{3M-2}}{5^{3M+1}}\left(\frac{N}{\pi\Gamma(3M+1)}\right)^{3/2}. \tag{16}$$

Euler-Lagrange tenglamalaridan foydalangan holda kvant tomchilari parametrlari uchun harakat tenglamalari olindi. Kvant tomchisining kengligi uchun harakat tenglamasi quyidagicha:

$$w_{tt}\equiv-\frac{\partial U(w)}{\partial w},\quad U\left(w\right)=\frac{\Gamma(3M)}{\Gamma(5M)}G, \tag{17}$$

bu yerda $U(w)$ – effektiv potensial, kichik tebranishlar chastotasi effektiv potensialdan kenglik bo‘yicha ikkinchi tartibli hosila sifatida aniqlanadi, $\Omega_0^2=\partial^2U(w)/\partial w^2$.

Potensialning ko‘rinishi zarrachalar sonining har xil qiymatlari uchun 5-rasmda (a) panelda keltirilgan. O‘zaro ta’sir konstantalarining berilgan qiymatlari uchun, zarrachalar sonining kritik qiymatidan N_{cr} boshlab kvant tomchilari paydo bo‘ladi, kritik qiymatdan chegaraviy qiymatlar oralig‘ida $N_{cr}<N<N_{th}$ kvant tomchilari metastabil bo‘ladi, chegaraviy qiymatidan katta holatlarda $N>N_{th}$ kvant tomchilari stabil bo‘ladi. O‘lchamsiz tenglamada o‘zaro ta’sir konstantalari $(\alpha,\beta)=(3,5/2)$ bo‘lganda, havola [1] da Bogoliubov-de Gennes tenglamasini sonli yechish orqali normaning kritik va chegaraviy qiymatlari $18.65\le N<22.55$ intervalda bo‘lishi ko‘rsatilgan. Havola [11] ga ko‘ra bu qiymatlar haqiqiy eksperimentlarda [7, 8] mavjudligi va o‘zaro ta’sir konstantalarining aynan shu qiymatlarida shu intervalga mos kelishi e'lon qilingan. Shuning uchun biz variatsion yaqinlashish metodi orqali olingan natijalarni boshqa yo‘l bilan olingan [1] va eksperimentlar [7, 8] bilan solishtirish maqsadida hisoblashlarda o‘zaro ta’sir konstantalarining shu qiymatlarini tanladik. Variatsion yaqinlashuvda normaning kritik va chegaraviy qiymatlari $19.5\le N\le 23.05$ intervalga mos kelishi ko‘rsatildi. Bulardan kvant tomchilarining xususiyatlarini biz taklif qilgan variatsion yaqinlashish yordamida o‘rganish haqiqiy eksperiment orqali olingan natijalar bilan mos kelishini ko‘rish mumkin. Kvant tomchilarining turg‘unligi Vakhitov-Kolokolov kriteriyasi va sonli hisoblashlar orqali tekshirildi. 5-rasm (b) panelda kimyoviy potensialning normaga bog‘lanishi keltirilgan. Vakhitov-Kolokolov stabillik kriteriyasi bo‘yicha $d\mu/dN<0$ hosilaning manfiy bo‘lishi kvant tomchilarining turg‘unligini bildiradi.



5-rasm: (a) N ning turli qiymatlari uchun effektiv potentsiallar shakli. Uzluksiz chiziq, uzuq chiziq va nuqtalar (o‘ng o‘q) mos ravishda 20, 25 va 200 lar uchun. (b) Kimyoviy potentsial μ normaning N funksiyasi sifatida, $(\alpha,\beta)=(3,5/2)$ parametrlar uchun. Qizil chiziq variatsion yaqinlashishdan olingan va nuqtalar mavhum vaqt simulyatsiyasidan topilgan. Kulrang chiziq Tomas-Fermi chegarasini ifodalaydi.

Kvant tomchilari dinamikasi o‘zaro ta’sir konstantalari $\alpha(t)=\alpha_0[1+\epsilon_1\sin(\omega t)]$, $\beta=\beta_0[1+\epsilon_2\sin(\omega t)+\theta]$ davriy o‘zgaruvchi bo‘lgan hollardayam o‘rganildi. Bu yerda $(\alpha_0,\beta_0)=(3,5/2)$, $\epsilon_1,\epsilon_2\ll 1$, ω_m va θ lar mos ravishda modulyatsiya amplitudasi, chastotasi va boshlang‘ich fazalari. Eksperimentlarda bunday modulyatsiyalar Feshbach rezonans texnikasi orqali amalga oshiriladi. Tashqi periodik modulyatsiya natijasida kvant tomchisining modulyatsiya amplitudasiga bog‘liq ravishda ikki hil regimi aniqlandi, kichikroq amplitudalarda adiabatik tebranish va kattaroq amplitudalarda kvant tomchisining bug‘lanishi aniqlandi.

Sonli hisoblashlarda, tashqi modulyatsiya chastotasi erkin tebranish chastotasiga teng bo‘lganda rezonans biyeniya hodisasi kuzatildi. Sonli hisoblashlarda rezonans chastotasi amplituda farqining tashqi modulyatsiya chastotasiga bog‘liqligidan aniqlash mumkin. Kvant tomchisi kengligini ifodayldigan (17) tenglamani, statsionar kenglik atrofida kichik siljish bo‘yicha qatorga yoyilmasidan $w=w_s+\xi$, bu yerda $\xi\ll w_s$ quyidagi chiziqli tenglamani olamiz:

$$\ddot{\xi}+\Omega_0^2\xi=\left(-\frac{3\Gamma(3M)\alpha_0G_1\epsilon_1}{\Gamma(5M)w_s^4}+\frac{9\Gamma(3M)G_2\beta_0\epsilon_2}{2\Gamma(5M)w_s^{11/2}}\right)\sin(\omega_m t), \tag{18}$$

